

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

2013-yil 8-iyul
N:27 (66932)

ENG ULUG' BAYRAMGA MUNOSIB SOVG'A



Javohir

Islombek

O'tayotgan har bir kunimiz xalqimizning eng ulug', eng aziz bayrami - Vatanimiz Mustaqilligining 22 yilligiga yaqinlash-tirayotgan ayni kunlarda keksa-yu yosh ayyomga munosib sovg'a hozirlashga intiladi.

Olti yoshli shaxmatchimiz Islombek Sidorov ham Erona o'tkazilgan Osiyo chempionatida uchta oltin medalni qo'lga kiritib, bayramga ajoyib tuhfa hozirladi.

Osiyo chempionatida uch oltin, ikkitadan kumush va bronza medalini jang'argan o'zbek shaxmatchilari yurtimiz yoshlarining dunyodagi tengdoshlaridan kam emasligini yana bir bor isbotlashdi.

Bu Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida navqiron avlod kamolotiga qaratilayotgan yuksak e'tibor mevasidir. Chempionatda qit'amizning yigirmaga yaqin davlatidan 270 nafar shaxmatchi qatnashgan bo'lsa, ularning hech biri o'zbek o'g'loni Islombek Sidorov ko'rsatgan natijani takrorlay olmadi.

Islombek chempionat doirasidagi uchala musobaqada ham o'z tengqurlarini katta farq bilan ortda qoldirib, uchta oltin medalga sazovor bo'ldi. U rapid va blits turnirlarda hamda klassik shaxmat bo'yicha yettitadan, jami 21 partiya o'yin o'tkazib, shuning 20 tasida g'alaba qozondi va o'ziga xos rekord o'rnatdi.

Chempionat doirasida o'tkazilgan blits turnirida 8 va 14 yoshgacha o'g'il bolalar o'rtasida Islombekning akasi Javohir Sidorov va «Umid nihollari - 2012» sport o'yinlarida kashf etilgan Nodirbek Yoqubboyev kumush medallarga sazovor bo'ldi.

16 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida o'tkazilgan rapid va blits turnirlarida uchinchi o'rinni egallagan Shahnoza Tursunova ikkita bronza medalni qo'lga kiritdi.

Bobur Sattorov, Mohinur Qahramonova, Nilufar Yoqubboyeva, Farida Xursanova kabi iqtidorli shaxmatchilarimiz musobaqa jadvalining yuqori pog'onalaridan joy oldi.

KO'RKAM LIBOSLAR KO'RKIMIZ BO'LSINI!

Bugungi tadbirda Dilafro'zning egnidagi libosiga ko'pchilik havas qildi. Uning quroq uslubida tikilgan nimchasi barchaning e'tiborini tortdi. Yunusobod dizayn kasb-hunar kolleji o'quvchisi Dilafro'z Sobirjonovanning aytishicha, u bu kastumni ustози Nargiza opa Tursunxo'jayeva yordamida yaratgan ekan. Dugonasi Nazokat Ergasheva esa adrasdan klassik uslubda kundalik ish libosi tikibdi.



Bu qo'li gul, hunarli tengdoshlaringiz bilan Yunusobod tumani hokimligi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi tuman bo'limi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi va qator tashkilotlar tomonidan «Ko'rkam liboslar — ko'rkimiz» shiori ostida tuman miqyosida o'tkazilgan milliy hunarmandchilik va liboslar ko'rgazmasida tanishdik. Eh-he, bu tadbirda ishtirok etgan turli o'quv markazlarida hunar egallayotgan bir-biridan iqtidorli qizlarni ko'rsangiz edi... Barchasining yuz-ko'zlarida mamnuniyat alomatlari balqib turardi. Tengdoshlarining ishlarini havas bilan tomosha qilishardi.

— Tadbirdan ko'zlangan maqsadimiz ham yoshlarni kasbga yo'naltirish, inson mehnati orqali ulug'lanishini anglatish hamda yoshlar orasida kiyinish madaniyatini keng targ'ib etishdan iborat edi, — deydi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi tuman bo'limi rahbari Nigora Abdurahimova qizlarning ishlarini mamnuniyat bilan kuzatar ekan.

Ko'rgazmada milliylik va zamonaviylik

uyg'unlashgan liboslarimiz, ish va sport kiyimlarimizga bugun dunyo ahli havas qilayotgani ta'kidlandi.

Chindan ham, atlas-u adraslarimiz tovusdek tovlanadi, ipakdek mayin bo'lib, har qanday iqlim sharoitida tanangizga xush yoqadi. Shunday go'zallikni qadrlamay bo'ladimi?! Yoki hunar — zar ekan, iste'dodini namoyish etib, uning zarlarini insonlarga ulashmay bo'ladimi?!

Qadrli singiljonlarim, sizlarga bir dugonayu opa sifatida o'z hayotimdan biroz so'zlagim keldi. Tibbiyot bilim yurti-yu universitetni tamomlagach, bo'lajak oila bekasi sifatida kelajak hayotimga qanchalik tayyorgarlik ko'rdim, deya o'ylanib qolganim yodimda. Javobimdan ko'nglim to'lmagach, o'quv markazlarida milliy taom tayyorlash, qandolatchilig-u tikuvchilikdan saboq oldim. Bugun esa xalqimizning «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» degan naqli qanchalik to'g'ri ekanini his etmoqdaman.

Sayyora QODIROVA

Mehnat insonni ulug'laydi,
deydi dono xalqimiz.
Darhaqiqat, sidqidildan
mehnat qilgan inson borki,
hurmat-e'tibor qozonadi.



MUALLIMLIK — ULUG' SAODAT

Yigirma sakkiz yildirki, maktab deya atalmish qutlug' dargohda o'quvchilarga saboq berib kelayotgan Gulchehra opa Yo'ldosheva ham ana shunday mehnatidan e'zoz topgan zahmatkash insonlardan biridir. Ustoz bolaligidanoq yosh avlod tarbiyachisi bo'lishni orzu qilgani bois, bu yo'lda tinimsiz izlandi.

Gulchehra opa 1995-yil Qarshi davlat universitetining «Boshlang'ich ta'lim pedagogika va psixologiyasi» bo'limini tamomlab, 2003–2008-yillar oralig'ida Viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish institutida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ma'ruzachi o'qituvchi sifatida ta'lim berdi. 2010-yilda izlanuvchan muallimning boshlang'ich sinflar uchun «Ma'naviyat» rify tadbirlar o'tkazish» uslubiy qo'llanmasini chop etildi. Shuningdek, ijodkor o'qituvchining ustози «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibasi Gulbodom Eshjonova bilan birgalikda 1-sinf o'quvchilari uchun yozgan «Mustaqil ish daftari» uslubiy qo'llanmasi ham respublikamiz yoshlarining har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishi yo'lida xizmat qilmoqda.

Ustoz Prezidentimizning «Chet tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi qaroridan ruhlanib, qizi Gulhayoxon bilan birgalikda o'quvchilarga ingliz tilini bosqichmabosqich, ya'ni 1-sinfdan o'yin tarzida, 2-sinfdan boshlab alifbo o'qish va grammatikani o'rgatish rejasini tuzdilar.

Gulchehra opa Yo'ldoshevaning ta'lim sohasidagi samarali mehnatlari inobatga olinib, 2011-yilda «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni berildi. Hozirda Qashqadaryo viloyati, Shahrizabz tumanidagi 21-umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq berib kelayotgan tajribali ustozga yosh avlodni tarbiyalashdek mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli kasbidagi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Komila TURG'UNOVA,
Toshkent bank kolleji o'qituvchisi,
Hulkar RO'ZIBOYEVA



Yoz — bolalarning miriqib dam olishlari, turli tadbirlarda ishtirok etib, ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi davr. «Yoz — 2013» mavsumini sarmazmun o'tkazish maqsadida 79 ta maktaboldi va 17 ta shaharorti oromgohlari faoliyat ko'rsatib, ularda jami 8730 nafar o'g'il-qizning dam olishi tashkillashtirildi. Oromgohlar qoshida Buxoro viloyatida mavjud 14 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlarining «To'qish», «Munchoqli bezak», «Tasviriy san'at», «Milliy raqs», «BTM», «Yosh tabiatshunos», «Yosh sayyoh» kabi to'garaklari tashkil etildi. Har bir mavsumga 12 soatga mo'ljallab to'garaklar ish rejasi

tuzildi hamda mashg'ulotlar olib borilmoqda. To'garaklarda o'quvchilar qo'li bilan yaratilgan ishlar ko'rgazmasi tashkil etilib, to'garak a'zolari rag'batlantirilib borilmoqda. Ular mashg'ulot o'tish bilan cheklanib qolmay, turli musobaqalarda, ko'rgazmalarda, konsertlarda va qo'shni oromgohlarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ham ishtirok etishmoqda. Jumladan, «Obodlik ko'ngildan boshlanadi», «Yosh musavvirlar», «Kitoblar — yaxshilikka yetaklar», «Orasta qizlar», «Mening sportchi do'stim» kabi tanlovlar va turli sport musobaqalari shular sirasiga kiradi. Shuningdek, viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazining «Jurnalstika va notiqlik», «Milliy

raqs» to'garaklari a'zolari «Yo'ldosh», «Moviyl gulxan», «Yosh aloqachi» va «Yosh avtomobilchi» shaharorti oromgohlarida bo'lib, «Xush kelibsan, bolajon!», «Salom senga, oromgoh!», «Salom oromgoh, salom yangi do'stlarim!» deb nomlangan ochilish marosimlarida o'z chiqishlari bilan dam oluvchilarni xushnud qildilar.

Bolajonlarning ta'til kunlari maroqli o'tayotgani esa yuz-ko'zlaridan sezilib turardi.

Guljahon KOZIMOVA,
viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi
o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari



Tamoyga marhamat!

BOLALAR «MUSTAQILLIK MADHI» tanloviga

OLMOS olgan surat

Aziz bolajonlar! Gazetamiz orqali ijodiy tanlovlar e'lon qilish yaxshi bir an'anaga aylanib borayotganidan xabaringiz bor. Ana shunday tanlovlardan biri «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovidir.

Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashi, «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida Mustaqilligimizning 22 yilligi hamda «Obod turmush yili» munosabati bilan e'lon qilingan mazkur tanlovga ham sizlardan ko'plab ijodiy ishlar kela boshladi.

Dil nomalaringizda qishlog'ingiz tarixi, uning donishmand, yaxshi

insonlari, qo'li gul ustalari, mehribon ustozlar haqida hikoya qilishga harakat qilmoqdasiz. Mustaqillik madhini kuylab, Istiqlol bergan imkoniyatlardan to'lqinlanib insholar zo'ryapsiz, rasmlar chizyapsiz. Quvonarlisi, har biringiz «Yurtimga munosib farzand bo'laman», deya ezgu niyat bildirmoqdasiz.

Nurotalik tengdoshingiz Ra'noxon o'z otasiga havas qilib, milliy hunarmandchilikning bir turi bo'lgan kulolchilikka mehr qo'ydi. Loydan turli haykalchalar yasab, atrofdaqilar e'tiborini qozondi va ijod namunalari bilan ko'plab ko'rik-tanlovlarda, festivallarda ishtirok etdi.

MEN BAXTLI QIZMAN

«Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qiyman. Chunki tengdoshlarim hayoti, qiziqish va intilishlariga befarq emasman. Ijodkor, iqtidorli, a'lochi, hunarmand o'g'il-qizlarga havasim keladi. Men ham ulardek ibratli bo'lishga, ota-onam, ustozlarim ishonchini oqlashga intilaman.

Oilamiz kulolchilik bilan shug'ullanib keladi. Shu boismi, men ham yoshligimdanoq bu hunarga o'zgacha mehr qo'yganman. Ilk bor o'z qo'llarim bilan haykalchalar yasaganimda, qanchalik quvonganim kechagidek yodimda. O'z mehnating mevasidan zavqlanish juda yoqimli. Insonning qo'li mo'jizalar yaratishga qodirligini ana shunda tushunganman.



Ijod namunalari bilan ko'plab ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib kelyapman. «Yangi avlod – 2013» bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, viloyat bosqichida ishtirok etish baxtiga muyassar bo'ldim. Mustaqilligimizning 22 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Qadriyatlarimizni qadrlaymiz» festivalida ham g'oliblik nasib etdi.

Viloyatimizda o'tkazilgan «Asrlar sadosi – 2013» madaniyat festivalidagi ishtirokim esa bu hunarga bo'lgan mehrimning yanada ortishiga sabab bo'ldi.

Bugun Istiqlolimizning 22 yillik to'yi arafasida qalbidan shunday o'ylar kechmoqda: shu muqaddas yurtda tug'ilganimdan baxtiyorman va unga hamisha munosib farzand bo'lishga intilaman.

Ra'noxon ISTAMTOSHEVA,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
54-maktabning 8-sinf o'quvchisi



ILHOMIMIZ JO'SHAR YURAKDA



Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ni o'qigan barcha tengdoshlarim men kabi ilhomlanib ketishsa kerak?! Bo'sh vaqtlarimda men ham qatra, hikoyalarda mashq qilib turaman. Ta'lim maskanimiz musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgani uchunmi, do'stlarim orasida havaskor ijodkorlar ko'p. Hatto o'tgan yili sinfimizdagi ijodkor o'quvchilarning ijod namunalari jamlangan «Yulduzchalar» nomli to'plam chop etildi. Mening kichik qatralarim ham o'rin olgan ushbu kitobchanning nashr etilishida ona tili ustozimiz Zeboxon opa Saidahmedovanning xizmatlari katta bo'ldi. Respublikamiz o'quvchilarini do'stlashtirayotgan «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida ham mashqlarim chop etilishini juda istayman.

Rashida ABDULAHADOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi o'quvchisi

KITOB DAN O'RGANAMAN



Navoiy bobomiz «Olamda kitobdan aziz do'st yo'q» deganlaridek, kitoblar mening do'stim, sirdoshimdir. Kitob mutolaa qilishni o'quvchilik davrimning mazmuni, deb bilaman. O'qiganda ham mazmunli asarlar o'qigim keladi. Zero, buyuk adib Asqad Muxtor shunday yozgan edi: o'qishlar har xil bo'ladi, birov ermak uchun, birov hordiq chiqarish uchun, birov ma'naviy ozuqa olish uchun o'qiydi. Men esa asardagi, hatto bolaligimda o'qigan ertaklarimdagi qahramonlar orqali yaxshi inson bo'lishni o'rganaman.

Munisa HAYITOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-maktab o'quvchisi

O'ramizda, ta'tilda bo'sh vaqt serob, mazza-da, istaganingni qilasan, deydingan, kompyuter o'yinlarini «to'yib» o'ynayotgan tengdoshlarimiz ham bor-a? Qiziq, nega kompyuter



KOMPYUTER ERMAK EMAS!

deganda, ba'zi tengdoshlarimiz xayoliga darrov o'yin keladi?! Axir bugun bizning vazifamiz turli tanlovlarda o'z loyihalari bilan ishtirok etayotgan tengdoshlarimiz kabi kompyuterdagi barcha dasturlarni o'rganish emasmi?! Masalan, siz o'zingizga, o'yin o'ynashdan tashqari ushbu qurilmadan yana qanday maqsadlarda

foydalana olaman, unda ishlashni qay darajada bilaman, degan savollarni berib ko'ring. Javobingizdan ko'nglingiz to'larmikan? Zero, kelajak bizdan faqat foydali va katta amallarni, ezgu ishlarni kutadi.

Hilola XOLIQOVA,
O'zMU qoshidagi Zangiota
akademik litseyi o'quvchisi



MENI KOMILLIKKA YOLLAGAN KITOB

Aziz qizlarjon! Ta'tilda bir dillashib suhbatlashsak, o'qiganlarimiz bilan o'rtoqlashsak, nima deysiz?! Ayni kunlarda siz ham miriqib kitoblar o'qiyotgan, kundaliklar yozayotgan bo'lsangiz, ajabmas!



Men ham bugun sizga oxirgi o'qigan kitobim haqida so'zlab bergim keldi. Zero, taniqli jurnalist San'at Mahmudovanning yaqindagina nashrdan chiqqan «E'tiqod, sen haqiqatsan» nomli kitobida bizga ibrat bo'lguvchi taniqli ijodkorlar, ustozlar hayoti, ijodiga oid ocherklar, lavhalar jamlangan.

Xalqimizning ardoqli shoirasi Zulfiyaxonimga havas qilmaydigan o'zbek qizi, ayoli topilmasa kerak. Benazir ijodkorimiz boshchilik qilgan «Saodat» jurnalida o'ttiz yil mobaynida faoliyat yuritgan jurnalist onaxonimiz ham avvalo, ustoz haqida yozadilar...

«Xayolimda, naq yuragimning to'rida hamon va har kuni bir yaxshi ayol yashaydi. O'sha men orzu qilib yetishganim – ovozlari muloyim, ko'zlari chiroyli, bilimi ko'p va mehnatsevar ustozim, shoira Zulfiya!.. Ustoz bizni ro'paralariga o'tqazib, mardona so'zlardilar. Juda buyuk, juda qattiqqo'l o'qituvchi huzurida imtihon topshirayotgandek, yozuvlarimiz oddiyga aylanib, ulug' inson vaqtini behuda olayotgandek tuyulardi...»

Bu holatni o'qib, Zulfiyaxonimning xalqimiz hamisha e'tirof etgan go'zal fazilatlariga yana bir bor tan bersam, bir tomondan shogirdning ustoziga bo'lgan hurmati, odobiga

havas qildim. Aziz qizlarjon, biz ham ustoz huzurida mulohaza va odob bilan so'zlamolik zarurligini unutib qo'yamaylik. Zero, aql-farosat, ibo, hayo, nazokat kabi ayol-qizlarni ulug'lovchi fazilatlar ustozlardan bizga meros bo'lsin!

Kitobni varaqlashda davom etib, nazokat va sadoqat timsollaridan yana biri Saida Zunnunova haqidagi satrlarni o'qiganim sari o'zimni savol-javob qilaman. Biz bugunning yoshlari ham «dilbar, kamtarin, ovozlari ipakdek mayin» bo'la olayapmizmi? Muallifning validasidan o'n sakkiz yoshida ayrilib qolgani haqidagi xotiralarni o'qir ekanman, aziz onajonlarimizni qanchalik qadrlayotganimiz haqida o'ylab qolaman. Ba'zan yoshlikmi yo erkalik qilib onamga biroz qo'polroq muomalada bo'lganlarim xayolimdan o'tadi-yu, afsus chekaman! Siz ham dugonajonlar, g'o'rlik qilib onajonlaringiz dilini og'ritib qo'yamang...

Kitobdagi «Yon daftardan ayrim sahifalar» ruknidagi ocherk va lavhalar ham juda o'qishli, samimiy. Ularda bugungi kundagi qizlar, ayollar hayotiga oid ayrim lavhalar keltirilgan. Mana ulardan biri...

Qiz bolani ba'zan gulning g'unchasiga, ba'zan billur shishaga qiyoslaymiz. Har ikki qiyoslashda ham uning nechog'lik nozik va beg'uborligiga ishora qilamiz.

Qizlar tarbiyasining alohida mehr, e'tibor talab etiladigan bir davri borki, u balog'at davridir. Bu vaqtda qizlarimizda ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'zgarishlar yuz berishini, ularda jizzakilik, biroz asabiylik kabi holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Xo'sh, bu o'zgarishlarning mohiyati nimalardan iborat? Bu davrda aynan qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim?

Keling, aziz dugonajonlar, bu xususda mutaxassis fikriga quloq tutib, o'zimizni qiziqirtirgan savollarga shifokor-terapevt, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi Aziza Rajabovaning javob olaylik.

– Balog'at yoshi, asosan, 14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrmi o'z ichiga olib, bu «o'tish davri» deb ham ataladi. Bu davrda qizlarimizda ayrim jinsiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, ruhiy o'zgarishlar ham sodir bo'ladi.

Bu davrda ota-ona farzandining to'g'ri ovqatlanishi, o'z vaqtda dam olishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Agarda qiz bola biror xatoga yo'l qo'ysa, noto'g'ri ish qilganini yotig'ri bilan to'g'ri tushuntirish, ota-ona unga dushman emas, balki eng yaqin do'st ekanligini, unga yaxshilikni ravo ko'rishini anglashida ko'maklashishlari lozim.

– *Yaqinda o'smir yoshidagi dugonalarim ruhshunosga uchragan ekan. U dugonamga «Sizga ota-onangiz e'tibor qaratishmas ekan, hoynahoy ular ishga butunlay ko'milib ketishgan*

bo'lsa kerak», debdi. Shunday bo'lsa, dugonam onasining har bir so'zini, koyishini o'ziga oladigan, salgina ishga chalg'igudek bo'lsa, «Ruhshunos to'g'ri aytgan ekan, sizlar men bilan hecham qiziqmaydiz», deya uning fikrini pesh qiladigan bo'lib qoldi. Asabiy, sal narsaga yig'layveradigan, jizzaki qizga aylanib qoldi. Bu holatga nima deysiz?

KAMOLOT FASLI



– Har bir qiz aynan shu davrda o'zining «men»ini topishga harakat qiladi, ya'ni o'zgalarga gapini o'tkazishga, o'zini haq deb hisoblashga urinadi. Bunga yuqorida ta'kidlanganidek, ular organizmida sodir bo'layotgan jismoniy hamda ruhiy o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bu davrda ota-onalar ham, o'qituvchilar ham ular bilan yanada yaqinroq bo'lishi, o'zini ular bilan tengdoshdek tutishi lozim. Hadeb urishavermaslik, tergayvermaslik kerak.

Ammo farzandi kim bilan do'stlashayotgani, qayerga borayotgani, bo'sh vaqtda nimalar bilan shug'illanayotganidan xabardor bo'lishlari zarur.

Chunki bu yoshda bilib-bilmay, turli yomon ko'chalarga kirib ketishlari mumkin.

– *Balog'at yoshida qizlar hayotida jismoniy tarbiya va sportning o'rni qanday?*

– Jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyos. Aynan jismoniy tarbiya uning sog'lom bo'lishiga, ruhiy stress holatidan tez va oson chiqib ketishiga, chidamli bo'lishga yordam beradi.

Lekin sportning boks, og'ir atletika turlari bilan shug'ullanish tavsiya etilmaydi. Chunki bu yoshda qiz bolalar organizmi rivojlanish bosqichida bo'lib, yuqoridagi sport turlari ularning noto'g'ri o'sishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, 11–12 yoshgacha karate bilan shug'ullanish ham tavsiya etilmaydi. Bu sport turi qizlar bo'yining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo suzish, yengil atletika, aql gimnastikasi bo'lgan shaxmat-shashka bilan shug'ullanish ular salomatligiga juda foydali.

– *Balog'at yoshida qiz bola tarbiyasida ota-ona bilan birdek mas'ul bo'lgan shaxs bu o'qituvchi, murabbiy hisoblanadi. Ular bu davrda qizlarni qanday qo'llab-quvvatlashlari lozim?*

KETMA, HAYO!

Shukur! Ibo, hayoli, ovozlari ipak misol, aqlli qizlar, ayollar ko'p. Mening nazdimda bahor ham ana shunday qizlar, ayollar uchun har yili kelib, ona tabiatni bezaydi... Lekin, qani endi gapning «lekin»i bo'lmasa hech...

Qarangki, yapon qizlarining kelinlik liboslari otabobolari qadrlab kelayotgan, yapon filmlarida ko'rganimiz kimano, ya'ni yoqali, yengli ko'ylaklar ekan. Biz esa ko'ylaklarimizning yoqasini, yengini yo'qotib qo'ydik... Nega endi biz shundoq chiroyli zamonga yetib kelganimizda, to'qlikka sho'xlik qilib ibo-hayoni unutsak?! Yo'q, bizni tark etma, hayo! Sen o'zbek qizlariga juda-juda yarashasan! Axir bizni kaftida ko'tarib turgan ona yerda ham hayo bor-a? Bu haqida o'ylash kerak...

Shuningdek, muallif bugun ba'zi ayollar va qizlarning bir-birini bag'riga bosib emas, bo'yini cho'zib, kimyoga bo'yalgan lablarini cho'chchaytirib cho'lp-cho'lp o'pishlarini, bag'rimiz esa yetim boladek o'ksi-ib qolayotganini qalamga oladi. «Kela qoling-ey, azizlarim, Sizlarni bi-ir bag'ringa bosay... Bag'rim orom olsin, yetim qolmasin», deb yozadi. Mening esa hayotni o'rgatuvchi, komillikka yetaklovchi ushbu kitobni bag'ringa bosgim keldi. Uning tafti, ziyosi qalbimni yoritib, yanada oqila, dilbar qiz, ayol, ona bo'lmoqlikka chorlayotganday, go'yo!

QIZLARXON

– Maktab yoki kollej o'qituvchilari qizlar ruhiyatiga e'tibor qilgan holda muomala qilishlari lozim. Ortiqcha termasliklari, dugonalari, sinfdoshlari oldida mulzam qilmasliklari kerak. Biroz ayb ish qilib qo'ygan taqdirda uni alohida xonaga chaqirib, ruhiy holatga qarab do'stona suhbatlashishi, uning dilidagi gaplarini bilishi lozim.

– *Qizlardagi ruhiy o'zgarishlar, ularning sabab va oqibatlari haqida nima deya olasiz?*

– Bu davrda har bir qiz muhabbat tuyg'usini his qiladi. Ba'zan bu chin muhabbat bo'lib, uni yillar davomida saqlab qolishlari mumkin.

Buning natijasida qizlarimiz parishonxotir, ko'p xayol suradigan bo'lib qolishadi.

Qizlarimiz qalblarida kurtak ochgan bu tuyg'uni abadiy saqlab qolish uchun esa avvalo, muhabbat ilohiy tuyg'u ekanini anglab olishlari, unga yuzaki qaramasliklari lozim. Biroz insonga ko'ngil qo'yishdan avval bu haqda onalari bilan maslahatlashsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki ona o'z farzandiga noto'g'ri maslahat bermaydi.

– *Mazmunli suhbattingiz uchun tashakkur. O'ylaymizki, qizlarimiz o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olishdi.*

Aziz dugonajonlar, unutmangki, biz To'maris, Bibixonim, Nodirabegim-u Uvaysiy avlodlarimiz. Shunday ekan, har jihattan ularga munosib avlod bo'lib kamol topaylik.

Dilnavoz ASLONOVA,
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Bolalarga kitob yozmoq uchun bolalikka qaytib bormoq kerak.
Boshlagan kitobingga oxirgi nuqta qo'yilmaguncha bola bo'lib yashashing zarur.

Said AHMAD

YOZUVCHINING BOG'IDA KITOBXONLIK BAYRAMI

*Bolalarning sevimli adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi
Xudoyberdi To'xtaboyevning bog'ida kitobxonlik
bayrami bo'lar emish, degan xushxabarni eshitdig-u,
dam olish kuni bo'lishiga qaramay yo'lga tushdik.*

Yozuvchimizning uyiga yaqinlashganda:

– Oyi, oyijon, qarang, yozuvchi bobomizning bog'ida yana bayram bo'lyapti. Qa-n-cha bolalar yig'ilishibdi. Yuring, biz ham kiraylik, – deya onasining qo'lidan tortqilab borayotgan qizaloqqa ergashdik.

Darhaqiqat, yozuvchimizning mo'jazgina bog'i ertalabdan gavjum edi. Mevali daraxtlarning deyarli barcha xilidan ekilgan, rango-rang gul-u rayhonlarga burkangan so'lim bog'ga kirgan kishi allanechuk orombaxsh huzurni his qiladi. Ayvunchalar shiftiga Cho'lpon, Said Ahmad, Mirtemir, G'afur G'ulom kabi zabardast yozuvchilarimizning kitobga, kitobxonlikka, ijodga oid ibratli hikmatlari bitilgan. Bog'da «O'yla, izla, top!» televiktorasining navbatdagi sonida bellashish uchun poytaxtga kelgan Jizzax iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejining «Jizzax», Jizzax shahar huquqshunoslik kollejining «Huquqshunos», Buxoro viloyati Jondor iqtisodiyot kasb-hunar kollejining «Jondor», Buxoro viloyati Qorovulbozor sanoat-transport kasb-hunar kollejining «Qorovulbozor» jamoalari a'zolari jam bo'lishdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo'limi raisi o'rinbosari Botir Ergashev kechani ochar ekan, ancha yillar avval qarovsiz yotgan tashlandiq bu maydonni chiqindilardan tozalab, mevazorga, gulzorga aylantirgan adibimizga minnatdorchilik bildirdi. Uchtepa tumani Ma'naviyat targ'ibot bo'limi rahbari Shohida Shomutalova, Uchtepa tumani «Kamolot» YOIH bo'limi rahbari Rayhona O'rmonova so'z olib, bunday ijodiy uchrashuvlar, kitobxonlik bayramlari o'g'il-qizlarimiz ma'naviyatini yanada boyitishga xizmat qilishini alohida ta'kidlashdi.

– Bu tabarruk go'shada ne-ne taniqli adib va yozuvchilarimiz, adabiyotshunos olimlarimiz bilan bo'lgan uchrashuvlar, davra suhbatlarining guvohi bo'lganmiz, –

deya «Yosh kuch» jurnalining Bosh muharriri Yusuf Jo'rayev o'z xotiralari bilan o'rtoqlashdi. Jurnalning bugungi kundagi faoliyati haqida to'xtalib, o'quvchilarga bellashuvda omadlar tiladi.

«Yangi asr avlodi» nashriyotining Bosh direktori Erkin Abdurahmonov esa uzoq yillardan buyon yozuvchimiz bilan ijodiy hamkorlik qilib kelishayotgani haqida so'zladi. Bolajonlarning sevimli shoiri Tursunboy Adashboyevning quvnoq she'rlari barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Gurungimiz qizigandan qizidi: kimdir «Sinfdosh» jurnalining Bosh muharriri Muhabbat Mingnorovanning savollariga javob qaytargan, kimdir Xudoyberdi akani savolga tutgan, yana kimdir ulardan dastxat olgan...

Kutilmaganda davraga «Sariq devni minib» asari bosh qahramoni Hoshimjonning kirib kelishi barchani hayratga soldi. Yig'ilganlar bu haqiqiy Hoshimjonmi yoki poytaxtimizdagi 106-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Fazliddin Yo'ldoshevmi, anglolmay qoldilar...

Sahna ko'rinishi mushoiraga ulanib ketdi. Buxorodan, Jizzaxdan kelgan o'quvchilar she'rxonlik qilishdi, qo'shiq kuylab, yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'lishdi.

Kecha so'ngida yozuvchi bobomiz o'g'il-qizlarni o'z bog'ida yetishtirgan mevalari bilan siyladi, har biriga «Peshonasiga televizor yopishib qolgan bola» nomli kitobchasidan sovg'a qildi.

Ustozlarimiz bunday ijodiy uchrashuvlar bolajonlar xotirasida bir umrga saqlanib qolishini ta'kidladilar.

Biz ham Xudoyberdi akaning ilk hikoyalari aynan «Tong yulduzi»da chop etilganini eshitib, behad quvondik. Adibimizdan yangi-yangi asarlar kutib qolishimizni aytib, bir olam taassurotlar bilan qaytdik.

YULDUZXON

SAODAT olgan suratlar

Istiqlol ilhomlari

O, MUSTAQILLIK!

Qancha insonlarning yuragi pora,
Kimlarning kunlari o'tdi qop-qora,
Ular seni kutdi, kelar deb zora,
O, Mustaqillik!
Begunoh insonlar mungli ohidan,
Osmon ham kechgandi quyosh, mohidan,
Bir sado keladi yurak toqidan –
O, Mustaqillik!
Endi quyosh porlar ayamay nurin,
Zaminga sochmoqda gavhar-u durin,
Bir so'z egalladi yuraklar to'rin –
O, Mustaqillik!
Bu kunga yetganning yo'qdir armoni,
Ko'ngil bahodayin, yo'qdir xazoni,
Shukronalar bilan o'tar har oni,
O, Mustaqillik!

BU DIYORNI...

Mayingina essa deyman tong shamoli,
Oppoq tonglar yoyganida oq ro'molin,
Hatto qushlar chug'urtlashib so'rar holin,
Qanday qilib sevmay bo'lar bu diyorni?!

Quyosh kulib peshonasin o'pib ketar,
Soylar toshib ostonasin tavof etar,
Tunda porloq yulduzlari alla aytar,
Qanday qilib sevmay bo'lar bu diyorni?!

Sabohatxon FATXULLAYEVA,

Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji o'quvchisi

CHAVANDOZ

(Hikoya)

Shodiya xola ko'chadan kirib qolgan daraxtlarga shakl berib yurgan choliga ko'zi tushdi. Uch-to'rt kundan beri biqinim sanchyapti, deya ko'rpa-to'shak qilib olgan G'ayrat buvaning turib ketganidan xursand bo'ldi. O'zi bilan birga bozorga tushib chiqqan nabirasi Ulug'bekka yuzlandi:

– Bolam, bozorligimizni ayvonga qo'y, bobong ham ko'rsinlar.

G'ayrat buva tok qaychini belbog'iga qistirganча ayvonga yaqinlashdi:

– Bozorni ko'chirib kelib sizlar-ku. Qiynalmadinglarmi?

Shodiya xola kiyimlarini almashtirgani xonasiga kirib ketayotgan nabirasiga ishora qildi:

– Ulug'bek durustgina dastyor bo'lib qolibdi. Mevalariyam yaxshilarini tanladi. Bundan buyon o'zi ham bemalol bozorlik qilib kelaveradi.

G'ayrat buva ayvon chetida turgan kattagina gul tuvakdagi niholning mayda barglarini ushlab ko'rib:

– Limonmi? – deb so'radi.

– Yo'q, Xitoy atirguli ekan. Nabirangiz qo'yarda-qo'ymay oldirdi. Juda chiroyli gullarmish.

Bu gapdan G'ayrat buvaning biroz jahli chiqdi, tepaga buralgan mo'ylovi pir-pir uchdi:

– O'g'il bolayam gulga ishqiboz bo'ladimi? U ot minishi kerak. Bu ketishda otinni sotib yuboraman, shekilli.

– Nega unday deysiz?! – dedi Shodiya xola xavotirlanib. – Nabiralaringiz otni yaxshi ko'rishadi-ku!

– Otni yaxshi ko'rish emas, yaxshi minish kerak.

Ulug'bekning otasi bolaligida otni sug'orib kelaman, deb adir atrofini uch-to'rt bor aylantirib minib kelardi.

Nabiramizga, otni sug'orib kel, deb har safar ataylab kuzataman. Anhorga jilovidan

ushlaganча yetaklab olib borib, yetaklab qaytib keladi. Buningdan chavandoz chiqmaydi, shekilli. Ha, aytganday, uloqqa kiyadigan kiyimlarimni tayyorlab qo'y, ertaga adirda katta uloq bo'ladi.



Shodiya xola, jiddiy gapiryaptimi, degandek choliga bir qarab oldi.

– Mazangiz yo'q-ku, tag'in urinib qolmang.

– Sodiqlik muallim nabiralari to'y qilib, uloq beryapti.

Katta chavandozsiz, davraga duo bering, deb iltimos qildi. Yo'q deyolmadim...

Ertasi kuni G'ayrat buva uyga kechga tomon qaytdi. Egardagi gilamni otdan tushmay kampiriga uzatdi. Keyin esa xuddi yigitlarday otdan ephillik bilan sakrab tushdi.

– Uloqmisan, uloq bo'ldi-da! Zo'r chavandoz yigitlarni ko'rib, o'zimniyam uloq chopgim keldi.

G'ayrat buva shunday deya otning jilovini nabirasiga uzatdi:

– Ma, otxonaga olib borib bog'la, shuni eplarsan.

G'ayrat buva ancha tetiklashib qolgandi. Uloq taassurotni gapirib charchamasdi. Gap orasida Sodiqlik muallimni yaxshilab koyiganini ham aytib o'tdi.

– Nimaga unday qildingiz? – dedi Shodiya xola ajablanib.

G'ayrat buva o'tirgan joyida bir tebrani oldi.

– Muallimning shaharda katta o'qishda ishlaydigan o'rtog'i bor ekan. Biram savlatli, ammo umrida ot minmagan ekan. Havasi kelganidan, menam bir ot minay, deb qoldi. Sodiqlik muallim do'stini kimningdir eng yuvosh otiga mindirdi. Ot begonasiradimi yoki uloqchilar hayqirig'idan cho'chidimi, mehmonni olib qochdi. Haligi odam otning ustida «Ushlanglar» deya baqirganicha ancha joyga borib qoldi. Qani endi ot jonivor to'xtasa?..

Shu payt tomoshabin yigitlardan biri bir sakrab otning ustiga minib, uni to'xtatib oldi. Uzoqdan kimligini bilolmadik. Mehmonning otdan tushishiga yordamlashib, yana tomoshabinlar ichiga kirib ketdi...

Kechki ovqat paytida ham G'ayrat buva uloq haqida to'lqinlanib, uloq gapirdi. Shu payt ko'cha darvozasi ohista taqilladi. Ulug'bekning otasi yelkasiga to'nini tashlab tashqariga chiqdi va zum o'tmay Sodiqlik muallim bilan yana bir kishini boshlab hovliga kirib kelishdi. Muallimning qo'lida kattagina gilam...

– Bu kishi eng yaqin o'rtog'im, – dedi muallim mehmonga ishora qilib. – Institutda katta domla, ot olib qochib, hammani kuldirgan ham shu kishi.

Nahotki, otdagi «sayr»dan keyin bir soatda o'zlariga kelsalar. Endi yana bir gap: bu kishiga otni to'xtatishga nabirangiz yordam beribdi. To'ydayam bu voqea shov-shuv bo'lib ketdi.

Mehmonim, u yigitga minnatdorlik bildirmay ketolmayman, dedilar. Saharda poxtayotgan ketishlari bois kech bo'lsayam bezovta qildik.

Mehmonlarni kuzatgach, G'ayrat buva nabirasi xonasining eshigini ohista ochib, ichkariga mo'raladi. Ulug'bek charchaganmi, qo'llarini ikki yoniga uzatganicha uxlab yotardi. Kexsa chavandoz tepaga buralgan mo'ylovini silaganча nabirasiga mehr bilan tikilib qoldi...

YUSUF og'a

TOSHKENTIM – FAXRIM

Yaxshiga doim
Ochadi bag'in,
Sog' bo'l iloyim,
Toshkentim – faxrim.

Sehri shahar,
Menga ko'p yoqar,
Misli gul bahor,
Toshkentim – faxrim.

Vatanim yuzi,
Betimsol o'zi,
Totti non, tuzi,
Toshkentim – faxrim.

Do'stga muntazir,
Maqtansang arzir,
Men shoshgan manzil –
Toshkentim – faxrim.

Jahongir NORBO'TAYEV,
TDIU qoshidagi Chilonzor akademik
litseyi 3-bosqich o'quvchisi

YURTIM

Takror aytilguvchi so'zlardan qochdim,
Yurtim, sen haqingda qilsam hikoya.
Bergan Istiqloqing mehrini tuydim,
Har bir xor-u xasing aylay himoya.

Hurim, O'zbekiston dilimda tanho,
Eng inju tuyg'ular asosidirsan.
Qalbindagi eng sof, oliy tilagim,
Yuksakka intilgan parvozidirsan.

Yoshman, bor imkonim, aqlim va kuchim,
Yurtim, ravnaqing-chun etay safarbar.
Dildan ado etib farzandlik burchim,
Shuhrating ko'taray osmon barobar.

Abdumurod BOBOYOROV,
Jizzax viloyati, Baxmal iqtisodiyot kasb-hunar
kolleji o'quvchisi

NAVBAT O'ZBEKISTON BIRINCHILIGIGA!

Nukus shahrida 1998–1999-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida boks bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi birinchiligi bo'lib o'tdi. Musobaqada jami 40 nafar sportchi 8 vazn toifasida o'zaro bellashdi. Musobaqada Ulug'bek Kamolov, Sardorbek Bozorboyev, Bekmurod Yusupboyev, Davron Tenelboyev, Odilbek Qoljanov, Jo'rabek Yusupov, Zamonbek Ilyosov va Rahimjon Azimov g'olib bo'lishdi. Endi ular Toshkent shahrida o'tkaziladigan O'zbekiston birinchiligida ishtirok etishadi.



MAHALLA FUTBOLCHILARI

Mahalla yoshlari o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelina-yotgan «Futbolimiz kelajagi» respublika kubogi musobaqasining Namangan shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Musobaqada shahardagi 82 ta mahalla fuqarolar yig'inidan 240 jamoa to'rt hududga bo'lingan holda bahs olib bordi.

Qiziqarli va muhosasiz kechgan bellashuvlarda 9–10 va 13–14 yoshli o'smirlar o'rtasida «To'quvchi mahallasi» jamoasi, 11–12 yoshlilar bahsida «Yangi asr» mahallasining yosh futbolchilariga teng keladigan raqib topilmadi.

G'olib jamoalar endilikda «Futbolimiz kelajagi» musobaqasining viloyat bosqichida qatnashishadi.



Shoh MUHAMMAD tayyorladi

SPORT MAKTABIDA

Namanganlik bolalarning ta'til kunlariga havas qilsa arziydi. Namangan shahridagi 2-Olimpiya ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabidagi sportning suzish, aykido, futbol, mini-futbol, yengil atletika, muaytay, stol tennis, kurash, dzyudo, og'ir atletika, qo'l jangi turlari bo'yicha mashg'ulotlarga mingdan ziyod o'g'il-qiz faol qatnashishmoqda.

YOSHLAR BAHSI

Navoiy viloyatida bolalar va o'smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilari o'rtasida sportning besh turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Unda 1998–2002-yillarda tug'ilgan 350 nafar o'quvchi futbol, boks, erkin va yunon-rum kurashi, dzyudo bo'yicha kuch sinashishdi. Yakunda boks bo'yicha Konimex tumanidagi 8-BO'SM, erkin yunon-rum kurashi va dzyudo turlari bo'yicha Navoiy shahridagi 3-BO'SM yoshlari g'olib bo'ldilar. 1998–1999-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi futbol bahsida Navbahor tumanidagi 9-BO'SM tarbiyalanuvchilarining qo'li baland keldi. G'oliblar musobaqa tashkilotchilarining Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Endi ular musobaqaning 10–18-iyul kunlari Toshkent shahrida o'tkaziladigan mamlakat bosqichida ishtirok etadilar.



Bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish bugunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Mamlakatimizda avtomobil yo'llarida sodir bo'layotgan bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari tahlilini ko'zdan kechirar ekanmiz, ular bilan yanada ko'proq ish olib borish, xavfsiz harakatlanish qoidalarini o'rgatish lozimligini anglaymiz. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar vazirliklari, Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator tadbirlar bu borada o'zining ijobiy samarasini berayotganini ko'ramiz.



Jumladan, maktab o'quvchilarining yozgi ta'til kunlarida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, ularga yo'l harakati qoidalarini o'rgata borish,

shuningdek, uchrashuvlar, suhbatlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB tomonidan maxsus «Ta'til» tadbirlarining rejasi ishlab chiqildi.

YOSH AVTONAZORATCHILAR SLYOTI G'OLIBLARI



Yaqinda Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi Xorijiy tillarga ixtisoslashirilgan maktab-internatda Respublika yosh avtonazoratchilarining «Yashil chiroq – 2013» musobaqalari bo'lib o'tdi.

Unda maktab, tuman, shahar, viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va yurtimizning barcha viloyatlaridan yosh avtonazoratchilar qatnashishdi. Qizg'in bellashuvlar asosida o'tgan

Yo'l qoidasi – umr foydasi!



musobaqalarda Sirdaryo viloyatining yosh avtoinspektorlar guruhi oliy o'ringa sazovor bo'lib, kompyuter to'plami, DVD, radiopriyomnik, futbol to'pi bilan taqdirlandilar.

Qolgan 13 ta yosh avtonazoratchilar guruhlari ham qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritdilar.

Shuningdek, slyot doirasida «Bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari: muammo va yechimlar» mavzusida matbuot anjumani ham bo'lib o'tdi.

2014-yilda slyot musobaqalarini an'anaviy o'tkazish estafetasi Jizzax viloyati yosh avtonazoratchilariga topshirildi.

Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist



BU KITOBNI O'QING!

Asiz bolajonlar, orangizda topishmoq aytishni, topishni yoq-tirmaydiganlar topil-masa kerak-a? Insonning zehni o'tkir-lashirib, fikrlab o'yladigan, zukkolikka, hozirjavoblikka o'rgatadigan topishmoqlarni hallo biz kattalar ham juda yaxshi ko'ramiz.

Ayni yuzgi ta'til kunlari ana shunday topgirtik, bitag'ontik bellashuvlarini o'tkazish uchun juda qulay fursat. Ayniqsa, qo'shaloq misrali she'riy topishmoqlar — metagram-malar bo'lsa, ayni muddao bo'lardi, shunday emasmi?!

Faniqi ijodkor Ergash MAJIDOVning «Tilim qilingan g'uncha» nomli to'plamida aynan shunday topishmoqlar jamlangan.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida tavallud to'lgan Ergash Majidov bir necha yil «Tong yulduzi» gazetasi lahririyatida ham mehnat qilgan. Keyinchalik o'z qishlog'idagi 66-umumta'lim maktabida o'qituvchilik qilgan uslozning «Xuz bir chinor hikoyasi» nomli kitobi chop etilgan. Shuningdek, ko'plab ijod namunalari jamoa to'plamida e'lon qilingan.

«Tilim qilingan g'uncha» to'plami-dan esa yelmishga yaqin qiziqarti, rasmiy metagrammalari o'rin olgan.

Bir uy to'la oq tulpor, Qovog'idan yog'ar qor.



Ariq bo'yida zangori to'shak, Qush — nomi ermak, topasiz beshak.



Zar yog'dusin tarar tong otgach, Qora sochin tarar kun botgach.

Sevgan joyi ariq, soy, To'rt oyoqda to'rtta oy.

Xo'sh, qo'shaloq topishmoq topishga qiziqib ketdingizmi? Unda kitobchani topib o'qing. Darvoqe, ijodkor bobongiz kitobchani so'nggi betida metagrammalarning javoblarini ham keltirgan. Ularga qarab, bilag'on-lingingizni tekshirib ko'rishingiz mumkin.

MUSLIMBEK

JONIVORLAR OLAMI



Qadri bolajonlar! Hayvonot bog'iga borishni yoki hovlingizda kuchuk, mushuk, quyon, lipratskan kabi biror jonivorni parvaristlashni yaxshi ko'rasiz-a? Lekin millat «do'st»laringiz haqida nimatarni bilasiz? Agar hayvonot olamiga qiziqsangiz, «Jonivorlar olami» nomli yangi ruknimiz orqali ular haqida ma'lumotlar berib boramiz.

Bu beozor jonivorlar siyrak butazorlar, daraxtlar bilan qoplangan jarliklarda, baland-pastliklarda, ba'zan bog'-xiyobonlarda yashaydi. Og'irligi 9 kilogrammgacha bo'lgan bu jonivorlar juda tez ko'payadi. Har yili 3-4 marta 4-12 tadan bolalaydi. Yangi tug'ilgan quyonchani ko'zlari 10 kundan keyin ochiladi. Shuningdek, terisida ham dastlab yungi bo'lmay, keyinchalik kulrang, ayrimlari oq yung chiqara boshlaydi.

Quyonlar, asosan, nimalar

bilan oziqlanishini hammingiz yaxshi bilsangiz kerak-a? Ha, ular sabzi, karam kabi sabzavotlar va o't-o'lanlar bilan oziqlanadi. Quyonlarning qum quyoni, shampon, shinshilla, shivit, uy quyoni kabi turlari mavjud. Ular 5-10 yil umr ko'rishlari mumkin.

Mana, bolajonlar, momiqvoylar haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'ldingiz. Yana qanday jonivorlar haqida bilishni istardingiz, bizga yozib yuboring.

ZUBAYDA tayyorladi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Bosh muharrir
Fuera JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

8-iyul 2013

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Fuera ADILOVA (mas'ul kotib), Zikrilla TESHABOYEV, Quroqboy ERGASHEV, Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir Sayyora QODIROVA Rassom Feruz MATYOQUBOV Dizayner Olovuddin ORIPOV Musahhih Nargiza ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 47763 Buyurtma N: J 7543

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«Quvnoq do'mboqchalar» multqahramonlarining 9 ta nomini toping:



Zulayho MO'MINOVA, Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi

ANTIQA DARAXTLAR

Yer yuzida shunday daraxtlar borki, ular haqida eshingan insonning hayrati oshadi. Bugun Sizga ana shunday antiqa daraxtlar haqida hikoya qilamiz.

Gruziyada o'suvchi Avokado daraxtini tub aholi «Sigir daraxti» deb ham ataydi. Uning mevasi to'yimlili, vitaminlarga boyligi bilan go'shtga tenglashtiriladi. Hazmi xuddi sariyog'dek. Og'irligi 50 grammdan 400 gramm-gacha bo'ladi.

Kosta-Rika, Ekvador va Lotin Amerikasining boshqa davlatlarida baland bo'yli, tanasi tekis, to'g'ri o'suvchi daraxtlarning ko'p turlarini uchratish mumkin. Ulardan biri shapaloqsimon barglari hamisha yam-yashil Fikus o'simligi bo'lib, uni yerlik aholi «Sut beruvchi daraxt» deb ham ataydi. Bunday nomlanishiga sabab, uning kesilgan po'stdog'idan oqib turuvchi sutida. Ammo uning mevasini yeb bo'lmaydi.

Sut beruvchi daraxtdan bir soat ichida sigir sutiga o'xshash bir litr sut olish mumkin. Lekin sut ochiq havoda tez quyulashadi va ta'mi o'zgaradi. Qizig'i shundaki, daraxt yil davomida o'z tanasidan sut ajratadi. Bu suyuqlik tarkibida 57 foiz sut, 37 foiz mum va 5 foiz yelim hamda shakar moddasi mavjud. Sutga suv qo'shib iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Afrikaliklar dunyoning boshqa biror mamlakatida o'smaydigan daraxtlari bilan doim faxrlanishadi. Kigeliya ana shunday daraxtlardan biri bo'lib, uning mevasi tashqi ko'rinishidan kolbasani eslatib yuboradi. E'tiborlisi, mevaning ta'mi ham xuddi kolbasanikiday.

ZUHRA tayyorladi

Gazetaning ushbu sonida Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlaridan ham foydalanildi.